
Jurnalistlar uchun press-tur tashkil etildi

Buvayda tumanining sanoat salohiyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni, jumladan bu ishlarda "Ponsod" mahalla fuqarolar yig'ini tadbirkorlari ishtiroki salmog'i bilan keng jamoatchilikni tanishtirish maqsadida jurnalist hamda blogerlari ishtirokida press-tur tashkil etildi.



Jurnalistlar va blogerlarning "Ponsod" mahalla fuqarolar yig'inida har bir xonadonda mebelchilik yo'lga qo'yilganligi, mahalla drayveri sifatida mebelchilik rivojlanib aholi bandligi taminlanayotganligi etiborini tortdi. Birgina Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yhatdan o'tgan Sultonov Ubaydullo stol-stul karkazlarini ishlab chikarishni o'z xonadonida yo'lga qo'ygan. Pres tur ishtirokchilari Sultonovlar xonadonida bo'lib ishlab chikarish jarayonlari bilan tanishdilar. Asosiy e'tibor ishlab chikarilayotgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha jahon standartlariga mos bo'lishiga qaratiladi.



Hozirgi kunga kelib Ponsod mahalla fuqarolar yig'ini drayveri sifatida Tikuvchilik ham o'sib bormoqda deydi,- hudud Hokim yordamchisi

Pres tur ishtirokchilari Nazirova Mumina xonadonida tashkil etilgan tikuvchilik sexida bo'lib, ayollar kiyim kechaklari va bolalarning xar xil turdagi bosh kiyimlar ishlab chikarish jarayonlari bilan tanishdilar.

2024-06-24 12:49:26